

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹

2025- yil yanvar-iyul


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **36 647,7** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,0** % ni tashkil etdi.

*Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **29 339,5** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **113,1** % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari 2025- yilning yanvar-iyul oylarida 2024- yilning mos davri (**9 570,6** ming so'm) ga nisbatan **112,0** % ga o'sib, **11 741,2** ming so'mni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **26 317,7** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **71,8** % ini tashkil etdi.

¹ 2024- yil yanvar-iyul oylari hajmi va 2025- yil yanvar-iyul oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-iyul

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Toshkent viloyati	36 647,7	100,0	114,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	691,7	1,9	115,1
Olmaliq	1 938,6	5,3	115,4
Angren	1 745,2	4,8	115,0
Bekobod	1 291,3	3,5	114,8
Ohangaron	600,6	1,6	115,1
Chirchiq	2 237,2	6,1	115,0
Yangiyo'l	1 225,3	3,3	115,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	706,4	1,9	114,6
Ohangaron	404,1	1,1	114,8
Bekobod	817,4	2,2	114,9
Bo'stonliq	1 634,0	4,5	115,2
Bo'ka	762,8	2,1	114,9
Quyi Chirchiq	527,2	1,4	114,9
Zangiota	2 592,7	7,1	115,0
Yuqori Chirchiq	1 149,5	3,1	115,2
Qibray	2 196,7	6,0	114,4
Parkent	1 038,5	2,8	114,8
Piskent	405,9	1,1	114,7
O'rta Chirchiq	888,0	2,4	114,9
Chinoz	746,5	2,0	114,8
Yangiyo'l	1 307,7	3,6	114,7
Toshkent	1 625,1	4,4	114,8
Yashirin iqtisodiyot	10 115,3	27,8	113,3

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

Zangiota (7,1 %), Qibray (6,0 %) tumanlari hamda Chirchiq (6,1 %), Olmaliq (5,3 %) shaharlarida tovar aylanma ko'pligi bilan izohlanadi, uhbu hududlar hajm bo'yicha viloyatning eng salmoqli o'ringa ega hududlari hisoblanadi. Shuningdek, aholining yuqori zichligi transport infratuzilmasiga, savdoga, ta'limga, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabi turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Bundan tashqari, rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik ob'ektlarga ega bo'lib, u o'z o'rnida xizmatlar sohasini tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27- fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida asosiy xizmat turlaridan ba'zilari, jumladan moliyaviy xizmatlar **35,6 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi **3,6** band), savdo xizmatlari **12,6 %** ga (hissasi **2,8** band), yashash va ovatlanish xizmatlari **10,8 %** ga (hissasi **2,0** band), transport xizmatlari **9,8 %** ga (hissasi **2,0** band), boshqa xizmatlar **19,1 %** ga (hissasi **1,0 %** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **21,2 %** ga (hissasi **0,8** band), ijara xizmatlari **22,3 %** ga (hissasi **0,5** band), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **11,9 %** ga (hissasi **0,4** band), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar **11,5 %** ga (hissasi **0,3** band), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **8,2 %** ga (hissasi **0,2** band), shaxsiy xizmatlar **8,5 %** ga (hissasi **0,2** band), ta'lim sohasidagi xizmatlar **2,8 %** ga (hissasi **0,1** band), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar **7,8 %** ga (hissasi **0,1** band) o'sdi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-iyul)


	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar- jami	29 339,5	36 647,7	114,0
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 002,0	1 376,6	121,2
Moliyaviy xizmatlar	2 863,7	3 969,6	135,6
Transport xizmatlari	5 678,1	7 026,0	109,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmati</i>	5 271,0	6 503,6	109,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 585,2	8 102,8	110,8
Savdo xizmatlari	7 083,1	8 431,3	112,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	815,6	1 049,5	108,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	831,9	995,7	102,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	902,6	1 100,1	111,9
Ijara xizmatlari	606,7	812,7	122,3
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	653,5	806,8	111,5
Shaxsiy xizmatlar	743,3	942,0	108,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar	383,5	452,8	107,8
Boshqa xizmatlar	1 190,3	1 581,8	119,1

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

2025- yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari **23,0 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **22,1 %**, transport xizmatlari **19,2 %**, moliyaviy xizmatlar **10,8 %**, boshqa xizmatlari **4,3 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,8 %**, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **3,0 %**, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **2,9 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar **2,7 %**, shaxsiy xizmatlar **2,6 %**, ijara xizmatlari **2,2 %**, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar **2,2 %**, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar **1,2 %** ulushni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari **24,1 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **22,4 %**, transport xizmatlari **19,4 %**, moliyaviy xizmatlar **9,8 %**, boshqa xizmatlar **4,1 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,4 %**, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **3,1 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar **2,8 %**, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **2,8 %**, shaxsiy xizmatlar **2,5 %**, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar **2,2 %**, ijara xizmatlari **2,1 %**, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar **1,3 %** ulushni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2025- yil yanvar-iyul, % da




2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **54,0 %** ni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **11,3 %** ga o'sdi.

Transport xizmatlarida omborxona va yordamchi transport xizmatlari (28,6 %) hamda pochta va kurerlik xizmatlari (10,4 %) da yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzun Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani quruqlikdagi taranport xizmatlari va quvurlarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi.

2025- yilning yanvar-iyul oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** o'sish kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **19,6 mlrd so'mga** yoki **16,5 %** ga o'sishi kuzatildi.

Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



Savdo xizmatlari borasida chakana savdo xizmatlari ushbu tur hajmining **60,7 %** ulushini tashkil etayotgan bo'lsa, ulgurji savdo xizmatlari **28,9 %** ini qamrab olmoqda.

Toshkent viloyatida **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **91,4 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **10,2 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyul oylarida **ta'lim sohasidagi xizmatlarning** ulushi jami bozor xizmatlarida **2,7 %** bo'lib, 2024- yil mos davriga nisbatan **2,8 %** ga o'sdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi
bo'limi

Manzil: 100198, Toshkent viloyati,
Nurafshon shahar, Toshkent yo'li
ko'chasi, 90- uy
Pochta: toshvilstat@exat.uz
Tel.: 71-203-45-00 (45-90)